



KIBERJINOYATLARNI JILOVLASH ORQALI XAVFSIZ KIBERMAKON YARATISH

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KIBERJINOYATLARNING BARVAQT OLDINI OLISHDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Dolzarb mavzu

Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli strategik islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi sharoitda jinoyatlarni sodir etishga shart-sharoit yaratayotgan har qanday illatga nisbatan murosasiz kurashish barchamizning muqaddas burchimiz, kundalik tashvishimizga aylanishi lozim.



► Davomi 3-betda

Har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti va jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini, avvalo, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirilgan yaxlit va izchil yondashuvlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston kabi faol islohotlar bosqichida turgan davlatlar uchun juda muhim.

ILG‘OR BILIM, TAHLILIY TAFAKKUR yoki yuqori kasbiy madaniyatga ega insonlarsiz har qanday islohot amaliy samara bermaydi

Malakali va yuqori bilimga ega mutaxassislar faqatgina strategiyalarni amalga oshiruvchilar emas, balki ularni shakllantiruvchi, amaliyotga joriy etuvchi va zamon talablariga moslashtiruvchilar hamdir.

Ilg‘or bilim, tahliliy tafakkur, xalqaro tajriba va yuqori kasbiy madaniyatga ega insonlarsiz har qanday islohotlar amaliy samara berishi qiyin.

Xorijda ta‘lim olish eng muhim vositalardan biri, bu orqali o‘zbekistonlik talaba va

mutaxassislar dunyodagi eng ilg‘or ta‘lim manbalariga ega bo‘ladi. Fan, texnologiya, boshqaruv va biznesdagi zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtiradi. Shuningdek, chet elda o‘qish jarayonida turli madaniyatlar bilan muloqot qilish, global tafakkur, raqamli innovatsiya kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa bugungi kunda ko‘p qirrali va zamonaviy kasblarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

► Davomi 2-betda

“ARDA XIVA” — XORAZMNING ZAMONAVIY TASHRIF QOG‘OZI

Prezidentimizning viloyatimizga har galgi tashrifi biz, xorazmliklar qalbida cheksiz g‘urur, faxr va shukronalik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Negaki davlatimiz rahbari viloyatimizga katta-katta mablag‘, yirik qurilishlarni amalga oshirish uchun qator tashabbuslar bilan keladi. Bu esa, o‘z navbatida, viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga aholi farovonligini yuksaltirib, bandlegini ta‘minlaydi.



Eng asosiysi, Prezidentimizni ko‘rib xorazmliklar ilhomlanadi, kuch oladi. Bu safar ham shunday bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining 1-2-may kunlari viloyatimizga navbatdagi tashrifi hudud rivoji, aholi farovonligini oshirishga

zamin bo‘luvchi tarixiy voqeiliklarga boy o‘tdi.

Ularga to‘xtalishdan oldin Prezidentimizning quyidagi e‘tirofini eslab o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi, nazarimda: “Xorazm dunyo sivilizatsiyasi



va madaniyatiga bebaho hissa qo‘shgan Sharq gavharidir. Bu ko‘hna yurt jahonga dong‘i ketgan ne-ne olimu fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir”.

► Davomi 2-betda



9-may — Xotira va qadrlash kuni

G‘ALABA BAYONNOMASINI OLIB KELGAN O‘ZBEK

Bemisl kulfatu og‘ir judoliklari bilan insoniyat tarixida mudhish iz qoldirgan fashizm balosi ustidan qozonilgan g‘alabaga bu yil 80 yil to‘ladi. Butun dunyo tinchlikparvar xalqlari bu kunni katta bayram qiladi, urush va uning sababchilarini la‘natlaydi.

Ushbu maqolada fashistlar Germaniyasining so‘zsiz taslim bo‘lgani — kapitulyatsiyasi to‘g‘risidagi akt — bayonnomani Berlindan Moskvaga yetkazishdek sharaffi vazifani ado etgan o‘zbek o‘g‘loni, harbiy transport va fuqaro aviatsiyasidagi birinchi o‘zbek uchuvchisi, “Li-2” ekipaji komandiri Abdusamat Taymetov haqida hikoya qilmoqchimiz.

Abdusamat Taymetov 1909-yil 5-yanvarda Sirdaryo viloyati Turkiston uyezdining (hozirgi Qozog‘iston) Chernak qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidan mehnatsevar va bilimga intiluvchan bo‘lgani uchun maktabda yaxshi tahsil oldi.

Tabiatan qiziquvchan emasmi, bolalik chog‘larida unda bir “kasallik” paydo bo‘ldi,

uni osmon bor sehru jozibasi, cheksiz siru sinoati bilan o‘ziga chorlar edi. U jamoa xo‘jaligiga berilgan yangi “Fordzon” traktorini ilk bor ko‘rganida “Bu nima ekan, qanday harakatlanyapti?” deya o‘ylab qolar, bu jumboqning tagiga yetishni xohlardi. Qishlog‘i osmonidan uchib o‘tadigan “samo kemalari”ni ko‘rganda esa batamom o‘zini unutar, bu qanotli mo‘jizalarga boqqan sari yuragi hapriqib, o‘zining o‘rni yerdan emasligi, osmon uchun tug‘ilganini his etardi. Biroq yosh Abdusamatning parvoz qilishiga hali ancha vaqt bor edi.

1932-yilda u planer maktabiga o‘qishga kirdi. Planerdagi parvozlarda qahramonimiz bu aynan sevimli mashg‘uloti ekaniga qat‘iy ishonch hosil qildi. Shuning uchun



1933-yili 3-fuqaro havo floti uchuvchilari va texniklari birlashgan maktabiga kirish uchun ariza topshirdi. Qabul qilingan ikki

mingga yaqin kursant orasida Taymetov yagona o‘zbek edi.

► Davomi 5-betda



Inson uchun

MATONATLILAR MAYDONI

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb qilishning yangi davri boshlandi

Poytaxtimizda o‘tkazilgan II an‘anaviy “Inson uchun” ko‘rgazmasi tadbirlari doirasida adaptiv sportni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan “Bizning maydon — iroda va matonatlilar maydoni” mavzusida matbuot anjumani tashkil qilindi. Anjuman ishtirokchilariga paralimpiya, surdoolimpiya, maxsus olimpiada va ko‘zi ojizlar uchun sport turlarini birlashtirgan yagona tizim haqida axborotlar taqdim qilindi.

Ta’kidlanganidek, bugun sport sohasidagi islohotlar imkoniyati cheklangan shaxslarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi hamda “Yangi O‘zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 8-noyabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

O‘zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasi tashkil etildi va uning tashkiliy

tuzilmasi tasdiqlandi. Xususan, assotsiatsiya tarkibidan O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi, O‘zbekiston karlar sport federatsiyasi, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar sport federatsiyasi, “O‘zbekiston maxsus olimpiadasi” respublika sport jamoat birlashmasi, O‘zbekiston adaptiv sport turlari assotsiatsiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘linmalari, Adaptiv jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti hamda nogironlar sporti sohasidagi boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rin oldi.

► Davomi 6-betda



Munosabat



“

ENDI XIVA TUMANIDAN 2400 GEKTAR YER XIVA SHAHRIGA O‘TKAZILIB, U JOYDA “SAHRO YULDUZI” TURISTIK MAJMUASI BUNYOD ETILADI. BIR QATOR TUMANLARIMIZDA TURIZM QISHLOQLARI TASHKIL ETILADIGAN BO‘LDI. BU ESA, O‘Z NAVBATIDA, VILOYATIMIZ TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI.

Nuqtayi nazar



ILG‘OR BILIM, TAHLILIY TAFAKKUR

yoki yuqori kasbiy madaniyatga ega insonlarsiz har qanday islohot amaliy samara bermaydi

Boshlanishi 1-betda

Chet elda ta‘lim dasturlari, ayniqsa, agar ular milliy strategiyalar doirasida, davlat stipendiya jamg‘armalari, yetakchi universitetlar bilan hamkorlik asosida amalga oshirilsa, yangi avlod mutaxassislarini shakllantirishda katalizator vazifasini o‘taydi. Vatanga qaytgan bunday kadrlar xalqaro standartlarni joriy eta oladi. Bilim va texnologiyalar almashinuvini kuchaytiradi hamda O‘zbekiston bilan jahon hamjamiyati o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash faqat texnik yoki boshqaruv sohalari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Ta‘lim, tibbiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish, huquq va madaniyat kabi yo‘nalishlarda ham chuqur islohotlar kechmoqda. Bu sohalardagi mutaxassislar tayyorgarligi esa aholi farovonligi va hayot sifatiga to‘g‘ri ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bois, kadrlar tayyorlashni tizimli va izchil tashkil etish, jumladan, xorijda ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish barqaror rivojlanishning asosiy omili. O‘zbekiston uchun samarali davlat boshqaruvi va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega intellektual va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan muhim investitsiyadir.

Davlatimiz rahbari joriy yil 5-may kuni istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash va mutaxassislarning xorijda ta‘lim olishini qo‘llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda har bir sohani rivojlantirishda kadrlar masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yoshlarning o‘qishi, mutaxassislarning

tajriba oshirishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Shu maqsadda “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 2225 stipendiat 45 ga yaqin davlatga o‘qishga yuborilib, byudjetdan jami 1,5 trillion so‘m yo‘naltirildi. Hozirgacha ularning 1400 nafari O‘zbekistonga qaytib, iqtisodiyot tarmoqlarida, ta‘lim, fan, tibbiyot va davlat boshqaruvida ishlamoqda. Endi bunday ishlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida mazkur fond O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib, Davlat boshqaruvi akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi etib qayta tashkil qilinadi.

— Bugungi dunyoda bilimli, o‘z sohasini chuqur tushunadigan, yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj juda katta, — deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi rektori Jasur Solihov. — Zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining ham o‘mi yuqori. Ayni maqsadda akademiya asangi ko‘rinishda qayta tashkil etilmoqda.

Bu yerda “Hokimlar maktabi”, “Rahbar ayollar maktabi”, “Kelajak liderlari” kabi kurslarda ilg‘or ta‘lim dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Yangi tizimga asosan, endi davlat xizmatchilari uchun 3 ta dastur — malaka oshirish, qayta tayyorlash va magistratura bo‘ladi. Uzoq va o‘rta muddatli barcha o‘quvlar xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma ta‘lim dasturlari hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining

tayanch tavsiyalari asosida tashkil etiladi. Magistraturada “Davlat boshqaruvi”, “Davlat siyosati”, “Hududlarni kompleks rivojlantirish”, “Inson resurslarini rivojlantirish” va “Davlat moliyasini boshqarish” yo‘nalishlarida 18 oygacha muddatda chuqurlashtirilgan bilimlar beradigan akademiya ta‘lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berish, nufuzli xorijiy ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatish uchun Xalqaro akademik maslahat kengashi tuziladi. Shuningdek, akademiya huzurida 4 ta yangi markaz ochiladi.

— Prezidentimiz jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish, istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizimni shakllantirish vazifasini qo‘ydi, — deydi Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori Gulnoza Ismoilova. — Bu boradagi eng asosiy yo‘nalishlardan biri — “El-yurt umidi” jamg‘armasi ta‘lim, ilm va tarbiya maskaniga aylanishi lozim. Jumladan, istiqbolli mutaxassislarni xorijda tayyorlash bo‘yicha bakalavriat, magistratura va doktorantura bilan bir qatorda davlat xizmatchilari olti oygacha maqsadli stajirovkaga yuboriladi. Bunda energetika, urbanizatsiya, transport, arxitektura, geodeziya, yer munosabatlari, texnika, muhandislik kabi drayver sohalarga, davlat boshqaruvi va dolzarb ijtimoiy yo‘nalishlarga ustuvorlik beriladi.

Oldimda turgan vazifalardan yana biri — xorijlik yoshlar mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olishi uchun imkoniyat yaratish. Bu esa, o‘z navbatida, bizga o‘zbek madaniyatini, tilini targ‘ib qilishga, O‘zbekistonda dunyoga tanitishga yo‘l ochadi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birga kadrlar tayyorlash klasteriga aylanadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“

YANGI TIZIMGASOSAN, ENDI DAVLAT XIZMATCHILARI UCHUN 3 TA DASTUR — MALAKA OSHIRISH, QAYTA TAYYORLASH VA MAGISTRATURA BO‘LADI.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Sharh

KICHIK BIZNESNI JADAL RIVOJLANTIRISHDA MUHIM HUJJAT

Boshlanishi 1-betda

Shunga muvofiq, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda davlat boji undirilmaydi. Bundan tashqari, o‘z faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirm yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 50 million so‘mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida esa 150 million so‘mgacha garovsiz kreditlar beriladi. Shuningdek, o‘z faoliyatini o‘rta yoki yirik biznes toifasigacha yiriklashtirgan tadbirkorlik subyektlariga bir yil davomida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rni qoplash (qaytarish) yetti kun muddatda tezlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ayni maqsadda 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 120 trillion so‘m, jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 22 trillion so‘m kredit ajratilishi nazarda tutildi.

Farmonda kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan ma‘muriy tartib-taomillarni joriy qilish belgilandi. 2025-yil 1-iyuldan 2028-yil 1-yanvargacha qadarkichik va o‘rta biznes subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga moratoriy e‘lon qilinadi. Tadbirkorlik subyektlariga yangi tartibga solish vositalarini belgilashni yoki amaldagilarini kuchaytirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan “yagona sanadan yangi qoidalar” tamoyili qo‘llanadi. 2028-yil 1-yanvargacha qadar “Birinchil imkoniyat” tamoyili joriy etiladi va uning doirasida birinchi faoliyat yili davomida savdo va tadbirkorlik sohalariga oid ma‘muriy huquqbuzarlikni ilk bor sodir etgan kichik tadbirkorlik subyektlari ma‘muriy javobgarlikdan ozod etiladi.



2025-yil 1-sentabrden boshlab quyidagi mezonlarga bir vaqtning o‘zida javob beruvchi kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini ixtiyoriy ravishda tugatishga soliq tekshiruv o‘tkazilmaydi. Ya‘ni oxirgi uch yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so‘mdan oshmagan, byudjet va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo‘lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotgan, “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangani inobatga olinadi.

Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes uchun infratuzilmani yaxshilash maqsadida qator vazifalarni amalga oshirish talab etiladi. Buning uchun 2025-yilda hududlarda drayver loyihalarni zarur infratuzilma bilan ta‘minlash uchun qo‘shimcha 500 milliard so‘m ajratiladi. 2025-yil 1-iyuldan loyiha

organlari va davlat tashkilotlarini ko‘chirish natijasida bo‘shaydigan davlat ko‘chmas mulk obyektlari biznes loyihalarini amalga oshirish uchun elektron onlayn auktsion savdolariga chiqariladi.

2026-yil yakuniga qadar ventchur jamg‘armalar ishtirokida yangi biznes yo‘nalishlarida kamida 200 ta startap loyiha ro‘yobga chiqarilishi ta‘minlanadi. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan har bir startap loyiha natijasida yaratilgan yangi turdagi mahsulotlar va xizmatlarni texnik reglamentlar hamda standartlarga kiritish orqali ularning davlat xaridlari tizimida sotilishi yo‘lga qo‘yiladi. Startap loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida “UzVC” milliy ventchur fondi huzurida Startap loyihalarini muvofiqlashtirish markazi tashkil etiladi. Ilg‘or xalqaro tajribalar asosida startaplar, ventchur moliyalashtirish va “biznes farishdalar” faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik

ofislari tavsiyasiga asosan, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga maydoni 10 ming kvadrat metr gacha bo‘lgan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini 5 yilga tekin foydalanishga berish tizimi joriy etiladigan bo‘ladi.

Farmonga ko‘ra, 15 ta tuman (shahar) dagi mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlari binolariga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish dasturi amalga oshiriladi. Buning doirasida mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlari Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy loyiha asosida yangi barpo etiladigan ko‘p qavatli binoga joylashtiriladi. Bu binolarning 1- va 2-qavatlari tadbirkorlik subyektlariga mulk huquqi asosida realizatsiya qilinadi. Bundan tashqari, mahalliy boshqaruv



uchrashuvlar o‘tkazib, loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish yuklatilgan. Bunday uchrashuvlarda ko‘tarilgan masalalarni hal qilish bo‘yicha alohida platformani ishga tushirish, uchrashuvlar o‘tkazish vaqti va joyi haqida oldindan mahalliy televideniye, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilib borish bilan bog‘liq vazifalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.

Tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish va biznes uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida kasbiy ta‘lim va tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘qitish tizimi samaradorligini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Ilg‘or xorijiy tajriba va mahalliy shart-sharoitlarga asoslangan Tadbirkorlik kvalifikatsiyalar ramkasi (Entrepreneurship Competence Framework) ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Davlat kasbiy ta‘lim tashkilotlariga tegishli bo‘lgan va amalda foydalanilmayotgan bino va inshootlar hamda yer uchastkalarini zamonaviy jihozlar bilan ta‘minlash, o‘quvchilarni dual ta‘lim shaklida ishga olish va amaliyot darslarini tashkil etish sharti bilan tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish tizimi yaratiladi. Yangi texnologiyalar, yondashuvlar bilan ishlashga qodir malakali kadrlarni tayyorlash uchun kichik va o‘rta biznes hamda ta‘lim tashkilotlari ishtirokida qo‘shma ta‘lim hamda amaliyot dasturlari amaliyotga kiritiladi. Ta‘limning barcha bosqichlarida aholining tadbirkorlik ko‘nikmalari, moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan dasturlar tuziladi.

Iqtisodiy salohiyati yuqori hududlarda tadbirkorlik subyektlari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlovchi yuqori texnologiyalar markazlarini tashkil etish bilan bog‘liq keng ko‘lamli vazifalar belgilangani diqqatga sazovor.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga qaratilgan, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan vazifalar ijrosi samarali ta‘minlanishi aholi farovonligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning eng muhim omili bo‘ladi.

Shuhrat RO‘ZINAZAROV,
yuridik fanlar doktori,
professor



KIBERJINOYATLARNI JILOVLASH ORQALI XAVFSIZ KIBERMAKON YARATISH

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KIBERJINOYATLARNING BARVAQT OLDINI OLISHDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI



Aziz TOSHPO‘LATOV,
ichki ishlar vaziri,
general-mayor

Boshlanishi 1-betda

Shu sababli hozirgi vaqtda butun dunyoda kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashishga huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Kiberjinoiyatlarning turlari va ushbu jinoyatni sodir etayotgan shaxslar soni ortib borayotgani yangi tahdidlar yuzaga kelishi bilan izohlanmoqda. Tahlillar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda kiberjinoiyatlar o'tidan keladigan yillik global zarar 11,4 trillion dollarga teng bo'lgan, 2026-yilda 120 foiz o'sib, 25,8 trillion dollarga yetishi bashorat qilinmoqda. Ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, 2026-yilga kelib kiberjinoiyatlar global transmilliy jinoyatlarning umumi sonidan ko'ra 5 baravar ko'proq qodir etilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, 2030-yilga borib dunyoda kiberjinoiyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalar davlat va xususiy serverlar, bulutli ma'lumot markazlari, shaxsiy kompyuter va qurilmalarda saqlanadigan jami 2 ming zettabaytlik (ikki trillion terabayt) ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashi lozim bo'ladi. Chunki kiberjinoiyatchilikning avj olishi oqibatida istalgan korxona-tashkilotning ma'lumotlar bazalari kiberhujumga uchrashi ehtimolini rad etib bo'lmaydi. Shu sababli bu borada mustahkam himoya choralarini ko'rish talab etiladi.

O'z navbatida, kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashishda ushbu turdagi jinoyatlarning latentligini inobatga olish kerak bo'ladi. Mutaxassislar fikricha, kiberjinoiyatlarning latentligi AQSHda 80 foiz, Buyuk Britaniyada 85 foiz, Germaniyada 75 foiz, Rossiyada 90 foizdan yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu esa kiberjinoiyatlarning sodir etilishi bo'yicha real holatlar statistikasi bundan ham yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Globallashtirish va raqamlashtirish muhitida raqamli texnologiyalar vositasida sodir etilayotgan jinoyatlar yildan yilga ko'payib,

yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlar soni 34 baravar ko'paygan.

Mazkur jinoyatlar natijasida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so'mdan ortiq mablag'i talon-taroj qilingan.

2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi 863 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58 ming 800 ta jinoyat qayd etilgani hamda kiberjinoiyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi sezilarli ravishda o'tishi kuzatilgani ularning oldini olish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda.

2023-yilda kiberjinoiyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 44,4 foizga yetib, deyarli har ikkita jinoyatning biri axborot texnologiyalari orqali sodir etildi. Bu holat ularning oldini olish tizimini muntazam, yilma-yil takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Kiberjinoiyatlarning asosiy qismini (98 foizi) bank kartalari bilan bog'liq jinoyatlar (kibero'g'irlik va kiberfribgarlik) tashkil etmoqda.

Kiberjinoiyatlar asosan quyidagi usullarda sodir etilmoqda:

— 60 foizi zararli havolalar va dasturlar yuborish orqali bank kartasi yoki mobil qurilma boshqaruvini qo'lga kiritish yo'li bilan;

— 16 foizi turli aldovlar bilan bank kartasi hamda mobil ilovalardagi akkauntlar boshqaruvini tasdiqlovchi SMS kodni qo'lga kiritish yo'li bilan;

— 4 foizi shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish orqali;

— 11 foizi onlayn savdo platformalaridagi fribgarliklar orqali;

— 9 foizi turli usuldagi fribgarlik



Prezidentimizning joriy yil 30-apreldagi qarori yurtimizda axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, kiberjinoiyatlar sodir etilishiga sabab bo'layotgan muammolarni tizimli choralar orqali hal qilish, kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida yagona ishlash amaliyotini yo'lga qo'yish, bu borada barcha mas'ul davlat organlari va muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manzilli hamkorligini tashkil etish bo'yicha vakolatli organni belgilash hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasidagi samarali chora-tadbirlarning navbatdagi muhim huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

sxemalari orqali fuqarolarning pul mablag'larini jalb qilish tarzida sodir etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va statistik ma'lumotlar asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi va real vaqt rejimida

bilsa, u kibermakonda doimo xavfsiz bo'ladi. Group-IB kompaniyasi tomonidan o'n yil davomida kiberfribgarlar shaxsiy ma'lumotlarni o'zlashtirmasligini nazarda tutuvchi maxsus eslatmalar ishlab chiqildi. Ammo bu eslatmalarning jamiyatda juda sekin tarqalishi tufayli bu usul o'z samarasini bermagan.

Ushbu yo'nalishdagi yetakchi tadqiqotchi U. Dizard axborot jamiyatining raqamli transformatsiyasi sharoitida qator muammoli masalalarni hal qilish uchun yangi texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar doimo hisobga olinishi va ularga qarshi kurashishi kerak bo'lgan potensial xavflarni o'z ichiga olishi lozimligini taklif qilgan. Uning fikricha, mazkur masala bo'yicha rivojlanish strategiyasi muayyan darajada texnik va iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi bilan belgilanishi kerak.

Qator olimlar qonun hujjatlarida belgilangan jazo choralarini kuchaytirish orqali kiberjinoiyatlarning oldini olish mumkinligini ta'kidlagan bo'lsa, boshqalari kiberjinoiyatlarning oldini olish muammolari ta'lim jarayoni subyektlarining raqamli savodxonligi bilan bog'liqligini asoslab bergan. Ular o'z ilmiy xulosalarida kiberjinoiyatlarning oldini olishda raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanishni, fan dasturlariga "Kiberxavfsizlik asoslari" o'quv fanini barcha o'quvchilar uchun majburiy fan sifatida kiritishni taklif qilgan.

Kiberjinoiyatlarning oldini olish muammolarining dolzarb masalalari yuzasidan yetuk olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar qilinib, bu bo'yicha innovatsion



Bugungi kunda jahonda ilmiy tadqiqotlar doirasida kiberjinoiyatlar oldini olish va kibermakonda xavfsiz muhitni yaratish uchun turli yondashuv va uslublar taklif etilmoqda.

Xususan, kiberjinoiyatlarni tergov qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi Group-IB kompaniyasi prezidenti Ilya Sachkovning ta'kidlashicha, agar foydalanuvchi kiberxavfsizlik qoidalarini

yondashuvlarga oid mulohazalar bildirilgan.

Bu bo'yicha nafaqat ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalari, balki ayrim rivojlangan davlatlarda ham yetarlicha strategik usullar ishlab chiqilgani kuzatilgan.

Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ilg'or tajribaga ega Singapur, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tomonidan uzoq yillik strategik masalalar qo'yilib, kiberjinoiyatlarning oldini olish muammolarining ayrim masalalari yechilgan.

Mazkur yo'nalish xalqaro tashkilotlar, xususan, NATO tomonidan ham global muammo sifatida qayd etilgan. Ushbu

chora-tadbirlar to'g'risida"gi mazkur qarorga asosan, kiberjinoiyatlarning barvaqt oldini olish yo'nalishida quyidagi choralarni ko'rish belgilandi:

Birinchidan, banklar tomonidan shubhali moliyaviy amaliyotlar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezkor xabar berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bunda Markaziy bankda shubhali o'tkazmalarni aniqlash mexanizmi ishlab chiqiladi va ma'lumotlar elektron ma'lumotlar almashinuvi tizimi orqali Ichki ishlar vazirligiga yuboriladi. Natijada fuqarolar fribgarlik sxemalariga investitsiya kiritish va aldanib qolish holatlarining barvaqt oldi olinadi, fribgarlik jinoyatlari, jumladan, "moliyaviy piramida" orqali o'zlashtirilgan



muammoning ahamiyati blokning so'nggi yillarda qabul qilingan barcha boshqaruv hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, bolalar kiberjinoiyatlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida UNICEF tomonidan ham bir necha yirik loyiha amalga oshirilgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasidan ko'rinadiki, kiberjinoiyatlarning yangi turlari va shakllari yuzaga kelayotgani sababli ularga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 30-apreldagi qarori yurtimizda axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, kiberjinoiyatlar sodir etilishiga sabab bo'layotgan muammolarni tizimli choralar orqali hal qilish, kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida yagona ishlash amaliyotini yo'lga qo'yish, bu borada barcha mas'ul davlat organlari va muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manzilli hamkorligini tashkil etish bo'yicha vakolatli organni belgilash hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasidagi samarali chora-tadbirlarning navbatdagi muhim huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

"Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan

va to'lov ilovalarini aniqlash va tanlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Uchinchidan, soxta qo'ng'iroqlarni cheklash (telekom antifrod) tizimi to'liq joriy qilinadi. Bugungi kunda mobil qurilmalardan foydalanuvchi fuqarolarning deyarli 95 foiziga nisbatan soxta qo'ng'iroqlar orqali aldovlar bilan shaxsga doir ma'lumotlarini o'g'irlashga urinishlar sodir etilmoqda. Natijada soxta qo'ng'iroqlar orqali sodir etiladigan fribgarlikning to'liq oldini olish imkoniyati paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, har yili "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" kompleks targ'ibot tadbirlari o'tkaziladi. Kiberjinoiyatlar tahlillari ularning 95 foizida jabrlanuvchilarning o'zi jinoyatga sharoit yaratib berganini ko'rsatmoqda. Kibersavodxonligi yetarli emasligi sababli fuqarolarning o'zi shaxsiy ma'lumotlarini fribgarlarga taqdim etmoqda yoki ijtimoiy tarmoqlardan zararli dasturlarni yuklab olmoqda.

Shunga ko'ra, har yilning noyabr oyida kibertarg'ibot oyligi o'tkazish, targ'ibot olib borishda barcha manfaatdor vazirlik va idoralar, nodavlat va jamoatchilik muassasalari mas'uliyatini oshirish uchun yillik dasturni Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlash tartibini joriy etish belgilangan.

Beshinchidan, aholining ogohligini oshirib borish bo'yicha barcha davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarida doimiy targ'ibot-tashviqot olib boriladi. Kiberjinoiyatlarning shakl va usullari tezlikda yangilanib, qisqa muddatda ko'plab fuqarolarning jabrlanib qolayotgani kuzatilmoqda.

Bu, o'z navbatida, yangi turdagi kibertahdidlardan aholining barcha qatlamini ogohlantirish orqali salbiy oqibatlarining barvaqt oldini olish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Shunga ko'ra, faol va ta'sirchan tashviqot olib borish bo'yicha barcha OAV va internet nashrlari mas'uliyati va tashabbuskorligini oshirish, har bir shaxsda boshqalarni yangi tahdidlardan ogohlantirish, "ijtimoiy foydali ish" sifatida yondashuvni shakllantirish, barchaning shaxsiy faolligini uyg'otish talab etiladi.

Oltinchidan, targ'ibotda internet tarmoqlaridan maqsadli foydalanish hamda tashviqot tadbirlarini yoshlar o'rtasida umummilliy harakat sifatida tashkil etish.

Bugun yoshlar asosiy vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishi hamda milliy qadriyatlarimizga yot g'oyalari targ'iboti keng tarqalishi kuzatilmoqda. Internetda maqsadli (target) reklamalar asosida targ'ibot olib borish xarajat talab etsa-da, ta'sirchan hisoblanishi isbotlanmoqda.

Yettinchidan, "Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish. Kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish bo'yicha HMQO, banklar, manfaatdor idoralar va jamoatchilik muassasalarining o'zaro hamkorligini tashkil etish va sohadagi faoliyatini manzilli yo'naltirish tartibi joriy etilgan. Mazkur sohadagi munosabatlarni tatibga soluvchi yagona muovosil-huquqiy hujjat mavjud emas, muhim masalalar belgilab berilmagan. Yangi qonun qabul qilinishi bilan kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul va ko'maklashuvchi muassasalar, ularning vazifasi hamda vakolatlari belgilanadi, kiberjinoiyatlarning barvaqt oldini olish maqsadida kompleks choralar ko'rib borish tizimi yaratiladi va bu O'zbekistonning xalqaro reytingdagi imini oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, fuqarolarni kibertahdidlardan barvaqt ogohlantirish, ularni kibexavfsizlikning dastlabki elementlariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish yo'nalishidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Xavfsiz kibermakon yaratish va kiberjinoiyatlarning barvaqt oldini olish barchaning mas'uliyatini anglashi va birgalikda ishlashini talab etadigan murakkab jarayondir. Kibermakon xavfsizligini ta'minlash, kiberjinoiyatlar sodir etilishiga sabab va shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv hujjatlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda jinoyat ishlarini ilmiy yondashuvlar bilan o'rganish orqali asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqish va huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim omillardan biri sanaladi.



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



an'anaviy jinoyatlarning kiberjinoiyatlarga transformatsiyasi yurtimizda ham kengayib borayotgani kuzatilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda so'nggi besh yillikda kiberjinoiyatlar 68 baravar, birgina o'tgan yilda esa 2023-yildagiga nisbatan 9,1 baravar oshgan. Ushbu davrda kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va

cheksiz axborot almashinuvi imkoniyatlarini ortib borishi sharoitida kiberjinoiyatlar murakkab transmilliy muammoga aylanib borayotganini ko'rish mumkin. Bu esa kibermakonda xavfsiz muhitni yaratish uchun innovatsion yondashuvlar asosida kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.



Kambag'allikdan farovonlik sari

BAG'DODLIK "PROFESSOR"
BIR YILDA 100 MING DOLLARLIK
ASAL EKSPORT QILDIQISHLOQ AHOLISINING
55 YILLIK ORZUSI USHALDI

Bu qishloqqa birinchilardan bo'lib Beg'am bobo ko'chib kelgandi. U paytlar atrof cho'lu biyobon edi. Odam oyog'i yetgan joy asta-sekin o'zlashtirilib, katta maydonlarga paxta ekila boshlandi. Buning uchun, eng avvalo, suv kerak edi. Ammo sahroga oqar suv keltirishning o'zi bo'lmadi. Lotok ariqlar orqali bu muammo ham bosqichma-bosqich hal etildi. Afsuski, o'sha yillari shuncha mehnat qilingan bo'lsa-da, aholining tomorqasini sug'orishga imkoniyat yaratilmadi. Ayniqsa, buning uchun Beg'am bobo ko'p harakat qildi. Murojaat qilmagan idorasi, uchrashmagan rahbari qolmadi.



Bolaligidan hovlisida poliz mahsulotlari yetishtirib, biror marta bozordan sotib olishga odatlanmagani bois, bunga ko'nikishi mushkul bo'ldi. O'zicha mustaqil suv tortib kelish rejasini tuzib, bir necha bor urinib ko'rdi, lekin qishlog'i ancha tepalikda joylashgani uchun oson kechmadi. Shunday bo'lishiga qaramay, har safar bahorda nimadir ekmoqchi bo'lib bel bog'lar, lekin suv yo'qligidan afsuslangancha qolardi.

Joriy yil boshidan qishloqlarga oqar suv keltirish borasidagi xabarni eshitib, Beg'am bobo Qo'ldoshovning boshi osmonga yetdi. "Suv kelganini ko'rmasam-da, kelish daragidan xabar topdim", deya undalik ishonmay, o'zini ovutib yurdi. Ammo erta bahordan qizg'in ish boshlangani guvohi bo'lib, ko'zlariga ishonmadi. Axir bir umrlik orzusi amalga oshayotgandi. Buni naq ellik besh yil kutdi. Bugun soch-soqoli oqarib, yoshi sakson beshga kirib qo'ydi.

Bobo tinch o'tirolmadi. Shu kunlarga yetkazganiga shukrona aytib, hasharga o'zi bosh bo'ldi. Quvur tortuvchi mutaxassislarga yordamga chiqib, aholini ham, mahalla raisini ham shunga undadi. Suv keltirgan aziz deganlaridek, hasharda ishtirok etayotganlarning holidan xabar olib turdi.

— Oldin ham ko'p bor qishloqdoshlar bilan birga oqar suv olib kelishga harakat qilgandik, — deydi Nishon tumani Oqoltin mahallasida yashovchi Beg'am bobo Qo'ldoshov. — Lekin barchasi besamar ketgandi. Bir yili aholi bir yoqadan bosh chiqarib, o'z mablag'imiz hisobiga olib kelmog'chi bo'ldik. Barcha birked harakatni boshlab, hisoblab ko'rsak, katta xarajat ekan. Imkoniyatimiz yetmagani bois,

yana shu holicha qolib ketdi. Barchamizda tomorqa bor. Afsuski, ekin ekishga suv yo'q edi. Endi bu muammo hal bo'ldi. Hozir qaysi xonadonga bormang, hovlisi bo'sh turganini ko'rmasiz. Odamlarimiz xursand. Bunday qulaylikning qadriga yetib, o'zlari tashabbus ko'rsatgan holda mehnat qilmoqda. Endi bozordan turli mahsulotlarni xarid qilib yurmam, o'zimiz yetishtiramiz. O'z qo'ling bilan yetishtirganingga nima yetsin!

Joriy yilda og'ir toifali mahallalar qatoriga kiritilgan Oqoltin hududiga "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida mablag' ajratilib, 1800 metr quvur orqali oqova suv tortildi. Buning natijasida aholi tomorqasidan unumli foydalanish imkoniyati yaratildi. Natijada allaqachon hovlilarga poliz mahsulotlari ekib, daromad topishni ham boshlab yuborishdi. Yana bir gap, suv nasoslari ishlashi muammosini ham aholi hal qilib qo'ydi. O'zlari tashabbus bilan quyosh panellari xarid qildi.

— Shu yil biz uchun quvonchli voqealarga boy tarzda boshlandi, — deydi Oqoltin mahallasi raisi Jahongir Tangriyev. — Eng asosiysi, ko'p yillik orzumiz amalga oshdi. Xonadonlarga oqar suv kirib borib, dillarni yashnatdi. Oldin bir dona daraxtni ko'kartirish mushkul edi. Bugun odamlarimiz katta qiziqish bilan har bir hovliga, ko'chalarga daraxt ekib, mehr bilan qaramoqda. Tez orada mahallamiz yashillikka burkanishi aniq. Bundan tashqari, tomorqaga ekin ekish avj oldi. Hozir mahallamizning deyarli yuz foizi tomorqasiga kartoshka ekan. Tez orada bozorga chiqarishni boshlab yuborishadi. Aholi o'z yerida dehqonchilik qilish orzusida edi. Bugun shu baxtga erishdi.

Tumandagi Shirinobod mahallasiga ham shu kungacha bir tomchi oqar suv yetib bormagan. Shu bois, odamlar tomorqasida ekin yetishtirish tugul, birorta ko'chat o'stirish imkoniga ega bo'lmagan. Joriy yilda bu yerga yangi suv nasosi o'rnatib berildi. Ekin maydonlariga suv yetib borishi uchun beton lotoklar yotqizildi. Mahallaga ajratilgan 3 milliard so'mdan ortiqroq mablag' evaziga 1,5 kilometr lotok o'rnatish, 200 metr metall quvur tortish, bitta nasos va transformator qurish, 2 kilometr masofaga asfalt yotqizish, 4 kilometrni shag'allashtirish ishlari bajarildi. Bu kabi yangilanishlar nafaqat ikkita mahallada, balki tumanning boshqa manzillarida ham ro'y bermoqda.

Misol uchun, tumandagi tijorat banklari bilan birgalikda ijara asosida ajratilgan jami 544 gektar yerda "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida yuqori daromadli eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha 49 ta namunaviy loyiha ishga tushirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda bugun 612 mingta xonadonda har yili ekin ekiladigan 66 ming gektar tomorqa yer maydonlari mavjud.

Viloyatda yiliga 3 marta hosil oladigan xonadonlar soni 35 foizga, 2 marta hosil oladiganlar esa 70 foizga yetgani bu boradagi islohotlarning ijobiy natijasidir.

Joriy yilda ham aholi tomorqalarida 21 ming gektar sabzavot, 11 ming gektar poliz, 7 ming gektar kartoshka, 9 ming gektar dukkakli ekinlar, 2 ming gektar moyli ekinlar va 13 ming gektar boshqa bahorgi ekinlar ekish hisobiga 900 ming tonna oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilib, xalqimiz dasturxoniga yetkazib berish rejalashtirilgan.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan o'tgan yili qabul qilingan tegishli qarorga asosan, viloyatdagi og'ir toifadagi 90 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash uchun 299 milliard 500 million so'm yo'naltirilgani ushbu mahallalar aholisi turmush sharoiti tubdan o'zgarishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunga qadar og'ir toifadagi 85 ta mahallada aholi tomorqa yer maydonlarini sug'orish tizimini yo'lga qo'yish uchun ajratilgan 142 milliard 528 million so'm hisobidan 39 ta nasos o'rnatildi, 163 ta artezian quduq qazildi, 70,2 kilometr tarmoq tortildi, 26,5 kilometr lotok o'rnatildi, 97,2 kilometr ariq betonlashtirildi va natijada 36 ming 936 ta xonadonning jami 10 ming 124 gektar tomorqasi oqar suv bilan ta'minlandi. Eng quvonarlisi, suv nasoslari quyosh panellari orqali quvvatlantirilgani hisobiga aholi nasosga ishlatilgan elektr energiyasiga ham pul to'lamaydi.

Shu bilan birga, og'ir toifadagi 85 ta mahallada sug'orish obyektlari ishga tushirilishi 37 mingga yaqin xonadonning tomorqadan daromad olishiga hamda vohada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi, albatta. Bu bozorlarimiz to'k'in, odamlar daromadli bo'lishiga zamin yaratadi. Zero, har bir tomorqa, har bir quduq oilalarning farovon hayoti uchun ochilgan eshikdir.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Rahmonalining uch o'g'li bor. Ular yoniga kirib qolsa, ro'zg'or tashvishlari birmuncha yengillashishiga umid qilib, birim ikki bo'lsin deb xorijga ishga boradi. Yaqinda uchrashganimizda mashina sotib olganini ko'rib xursand bo'ldim. Ro'zg'or tashvishidan ortib, mulk sotib olgani yaxshi-da.



— Haliyam xorijga boryapsanmi? — deya hamqishlog'imga yuzlandim.

— U kunlar ortda qoldi, aka. Endi uyda turib ham xorijdagidan ko'ra yaxshiroq daromad topyapman, — deydi mamnun kayfiyatda.

Qisqa suhbat davomida Rahmonali o'z tomorqasida issiqxona qurgani, asalarichilik bilan ham mashg'ul ekan, mehnatiga yarasha daromad topib, ro'zg'orini butlayotgani, daromad chakki emasligini bayon qildi. To'ng'ich o'g'li Farg'ona davlat universitetida tahsil olayotgan ekan. Kamtar, kamsuqum hamqishlog'imning yutug'i, hayotdan mamnunligini ko'rib xursand bo'ldim. Asal yig'imi mavsumida asalxo'rlikka o'tishni va'da qilib, u bilan xayrlashdim.

Asalarini yetti xazinaning biri, deyishlari bejiz emas. Xazina — xazina-da, mehr berilsa, mehnat qilinsa, ko'payib, salmog'iyam, "qaymog'iyam" oshib boraveradi. Buning ustiga, shifobaxsh mahsulot qadri-yu narxi hech qachon tushmaydi. Shu sababli bu soha



bilan qiziquvchilar kundan kunga ko'payib bormoqda. Ular uchun yangi imkoniyat, imtiyozlar berilyapti.

Bag'dod tumanidagi "Olchin" mahalla fuqarolar yig'inida asalarichilik "professori" Abduvohid Ubaydullayevning tashabbusi bilan "Asal markazi" ochildi. U "Bag'dod zamin asali" dehqon xo'jaligi rahbari, asalarichilar sulolasining uchinchi avlodi bo'ldi.

Bobom Ubaydullo ham mohir asalchi bo'lgan. Bolaligimizdan shu soha ichida ulg'aydik. Bizdan keyin o'g'illarimiz, kelin-qizlarimiz, nevaralarimizda ham qiziqish so'ngani yo'q. Demak, hali bu an'ana davom etadi, — deydi tadbirkor. — Bugun yurtimizda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan, faqat izlanish, intilish kerak, xolos. Ularning erishayotgan yutuqlari, chet elma-chet el yurishlariga havasim keladi.

Abduvohid bobomeros asal yetishtirishni ilmiy izlanishlar, zamonaviy uslub va metodlar, innovatsion texnologiyalar bilan boyitdi. Qo'llanna va kitoblar o'qidi, yangi nav va zotlar ustida ishladi. Soha bo'yicha o'tkazilayotgan anjuman va konferensiyalar, tanlovlar ishtirokchisi bo'lib, qator yutuqlarga erishdi. Asal bayramlarida faol qatnashib, O'zbekiston asalarichilar uyushmasi tomonidan "Asalari mahsulotlarini eng ko'p eksport qilgan asalarichilari" deya e'tirof etildi, mehnatlari munosib rag'batlantirildi, "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Bugun uni nafaqat yurtimiz,

balki xorijliklar ham yaxshi biladi. Bu yerda faqat bol yetishtirish emas, balki asalari oilasini eksport qilish yoki qishloqdagi kam ta'minlangan oilalarga tarqatish, qiziquvchilarga o'z bilganlarini o'rgatish borasida salmoqli ishlar qilindi. O'tgan yilning o'zida "Chekxitoy" mahalla fuqarolar yig'inida asalarichilik kooperativini tashkil qilish orqali 20 ta oila vakillarining bandligi ta'minlandi.

Imunitetni mustahkamlaydi. Qoramolnikiga qaraganda tezroq pishadi. Tuxumi tarkibida xolesterin yo'q. Qand kasalligiga chalingan va qon bosimi yuqori bemorlar ham uning tuxumidan bemalol iste'mol qilishi mumkin. Tuyaqush pati dekorativ bezak uchun ishlatiladi. Terisi sifatli, tashqi ta'sirga ancha chidamli. Undan poyabzal, sumka va boshqa jihozlar tayyorlanadi. Moyi og'riq qoldirish xususiyatiga egaligi tufayli tibbiyot va kosmetikada keng ishlatiladi.

O'ymamol Hayitova yoshlarda tuyaqushchilikka qiziqish uyg'otish uchun ta'lim maskanlari va boshqa jamoat joylarida uchrashuvlar o'tkazadi. Ayni kunda 100 ga yaqin tuyaqush parvarishlayotgan oilaviy korxona rahbari sifatida faoliyati avvalidagi ilk qadamlar, erishayotgan yutuqlari haqida hikoya qilib beradi.

Bugun Surxon vohasida O'ymamol opa singari tuyaqush boqish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar ko'paymoqda. Ular oilalar farovonligi bilan birga ishsizlarning bandligini ham ta'minlamogda.

Sho'rchi tumani Konobod mahallasida yashovchi Humoyuddin Musurmonov ham tuyaqushchilik bilan shug'ullanadi. Mahallada yangilik sifatida tuyaqush boqa boshlagan Humoyuddin allaqachon yosh va umiddi tadbirkor sifatida o'z ishini puxta egallaganlardan.

— Olitla tuyaqushimiz bor. U juda tez ko'payadi, kasalliklarga chidamli, immuniteti

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Buning uchun "Bag'dod zamin asali" tomonidan ularga 60 qutida 120 ta asalari oilasi tarqatildi. Bilmaganlarini muntazam o'rgatib bordi, avvaliga ozuqalarigacha yetkazib berdi. Kasanachilik asosida yetishtirilgan mahsulotni o'zi sotib oldi. Aholi bitta asalari oilasidan 700-800 ming so'mdan foyda ko'rdi. Bu tashabbus Olchin, Matqulobod qishloqlarida ham keng quloq yozdi, tumandagi fermer xo'jaliklariga 300 ta asalari oilasi tarqatildi. Astoydil kirishgan fuqarolar asalning o'zidan 10 million so'm, asalari oilasini sotishdan esa 25 million so'mgacha daromad topdi.

Besh yil avval 30 ta asalari oilasi olgandim. Bugunga kelib ular soni 65 taga chiqdi, — deydi Mullavali qishlog'ida yashovchi Hoshimjon Imomov. — Yurakdan chiqarib parvarish qilinsa, turgan-bitgani xazina, daromad manbai ekan. Bu ishlarda kooperatsiya vakillarining xizmatlari katta. Baraka topishsin, bilganlarini o'rgatish, maslahat berishdan qochmaydi...

"Asal markazi" ochishdan maqsad ham boshqalarga o'rgatish, oilalarni daromadli qilish. Kelgusida apiterapiya — asalari bilan davolash muassasasi faoliyati yo'lga qo'yiladi bu yerda. Mazkur davolash usuli juda qadimdan qo'llanib kelinadi. Yig' masalasi hal bo'lsa, davolash muassasasi binosi ham quriladi.

O'tgan yili mazkur dehqon xo'jaligi tomonidan 100 ming dollarlik asal eksporti amalga oshirildi. Ayni kunda 2 mingdan ziyod asalari oilasi parvarish qilinmoqda. Bu yiliga o'rta hisobda 14-15 tonna asal yig'ib olinadi degan gap.

Yaqinda pokistonlik tadbirkorlarga "Bag'dod zamin asali" brendi ostida 20 tonna asal yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzildi. "Asal markazi"da esa 30 xildan ortiq tabiiy, sof asal mahsulotlari, ari boqish uchun kerakli barcha uskuna va qo'llanmalar mavjud bo'lib, mutaxassislar doimiy ravishda mijozlarga o'z maslahatlari bilan beminnat yordam ko'rsatmoqda.

Aytilishlaricha, bir kilo asal uchun bolalar o'n millionta gul va yaproqqa go'nib, nektar yig'adi. Shu sababli keyingi yillarda fermer va bog'bonlar tomonidan asalarichilari fermer bilan hamkorlikda ishlash istagini bildirayotgan takliflar ko'paygan. Gap shundaki, asalari boqilgan hududda mevali daraxtlar guli 30 foiz, paxtaniki esa 15-20 foizgacha qo'shimcha changlanib, hosildorlik ortadi.

Bundan tashqari, tumandagi "Ayollar dafartari"ga kiritilgan 20 nafar xotin-qizga yil davomida moddiy ko'malaklashish an'asi yo'lga qo'yilgan. Yaqinda esa viloyatdagi mehribonlik uy'i tarbiyalanuvchilari uchun 500 kilo asal beminnat tortiq qilindi.

Bag'dod tomonlarga yo'lingiz tushsa, "Asal markazi"ga ham bir kirib o'ting. Tilyorlar asaldan tatib ko'rishni, qiziqish va imkon topsangiz, bu sardorlarni soha bilan shug'ullanishni tavsiya qilamiz.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

KARAJATI QUSHNIKIDEK, DAROMADI TUYADEK

Surxondaryoda parrandachilik sohasini yanada rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, aholini mahalliy sifatli hamda arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rilmogda. Ayniqsa, vohada karajati qushnikidek, daromadi tuyadek deya ta'riflanadigan tuyaqushchilikka qiziqish ortib boryapti.



Oltinsoy tumanining Bibizaynab mahallasida tuyaqushchilik bilan shug'ullanayotgan onaxon haqida eshitib, yo'lga tushamiz. Kun sayin obod bo'lib borayotgan mahalladan ishbilarmonning xonadonini osongina topamiz. Boisi, uning deng'i yaqin atrofdagi barcha mahallaga kettgan, bir necha kishini ish bilan ta'minlagan. Keng maydonda parvarishlanayotgan tuyaqushlarni ko'rib, ularning yemishi ham jussasiga yarasha bo'lsa kerak degan gap o'tdi xayolimizdan. Ammo 60 yoshli O'ymamol Hayitova bilan subbatda bu fikrimiz bir oz noto'g'ri ekanini angladik.

— Jonivorlar ichida o'zining to'yganini biladigan yagona jonot tuyaqush, — deydi ishbilarmon ayol. — Ko'rinishi bahaybat bo'lgani bilan kunlik ozuqasi 2 kiloga teng. Jo'jalari esa 200 grammadan ozuqa yeydi. Bu jonivorning turgan-bitgani foyda. Bir bosh



tuyaqush maromida boqilsa, 6-7 oyda go'shtga tayyor bo'ladi.

O'ymamol Hayitova Oltinsoy tumanidagi "Tuyaqush tillolari" oilaviy korxonasi rahbari sifatidagi samarali faoliyati tufayli davlatimiz

tomonidan 2023-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan.

Mutaxassislar fikricha, tuyaqush tuxumi va go'shtining foydali xususiyati ko'p. Go'shti vitamininga boy, parhezbo.

Immunitetni mustahkamlaydi. Qoramolnikiga qaraganda tezroq pishadi. Tuxumi tarkibida xolesterin yo'q. Qand kasalligiga chalingan va qon bosimi yuqori bemorlar ham uning tuxumidan bemalol iste'mol qilishi mumkin. Tuyaqush pati dekorativ bezak uchun ishlatiladi. Terisi sifatli, tashqi ta'sirga ancha chidamli. Undan poyabzal, sumka va boshqa jihozlar tayyorlanadi. Moyi og'riq qoldirish xususiyatiga egaligi tufayli tibbiyot va kosmetikada keng ishlatiladi.

O'ymamol Hayitova yoshlarda tuyaqushchilikka qiziqish uyg'otish uchun ta'lim maskanlari va boshqa jamoat joylarida uchrashuvlar o'tkazadi. Ayni kunda 100 ga yaqin tuyaqush parvarishlayotgan oilaviy korxona rahbari sifatida faoliyati avvalidagi ilk qadamlar, erishayotgan yutuqlari haqida hikoya qilib beradi.

Bugun Surxon vohasida O'ymamol opa singari tuyaqush boqish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar ko'paymoqda. Ular oilalar farovonligi bilan birga ishsizlarning bandligini ham ta'minlamogda.

Sho'rchi tumani Konobod mahallasida yashovchi Humoyuddin Musurmonov ham tuyaqushchilik bilan shug'ullanadi. Mahallada yangilik sifatida tuyaqush boqa boshlagan Humoyuddin allaqachon yosh va umiddi tadbirkor sifatida o'z ishini puxta egallaganlardan.

— Olitla tuyaqushimiz bor. U juda tez ko'payadi, kasalliklarga chidamli, immuniteti

yuqori, — deydi H.Musurmonov. — Kelajakda tuyaqushlarimni ko'paytirmoqchiman. Tuyaqushchilik bilan shug'ullanish uchun joy topish muammo deyishadi. Ammo bunday emas. Tuyaqush boqish uchun keng joy shart emas. Yizgan qishloqqa o'xshagan hududlarda bo'sh yotgan joylar juda ko'p. Tuyaqushchilik bilan shug'ullanish uchun to'rt-besh sotix yer yetarli.

Odatda voha tomonlarda tuyaqushchilik bir oz notanish soha bo'lgani uchun ko'pchilik tadbirkorlikning bu turi bilan shug'ullanishni qiyin deb o'ylaydi.

— Hozir tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun imkoniyat ko'p. Faqat insonning o'zida harakat bo'lsa, bas. Bilasizmi, tuyaqush quyoshni va tozalikni yoqtiradi. Bu jihatdan uni bemalol baraka ramzi deyish mumkin. Rangini tez farqlaydi. Odamlarni yaxshi ko'radi, — deydi tuyaqushchilik bilan shug'ullanayotgan denovlik tadbirkor Abduvohid Hamzayev.

Bugun eng chekka manzillarda ham avval qo'l urilmagan va istiqbol haqida tasavvur bo'lmagan soha hamda tarmoqlarda yurtdoshlarimiz bemalol faoliyat yuritmoqda. Salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Bu ham mahallakatda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgani samarasidir.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Mutaxassislar fikricha, tuyaqush tuxumi va go'shtining foydali xususiyati ko'p. Go'shti vitamininga boy, parhezbo. Immunitetni mustahkamlaydi. Qoramolnikiga qaraganda tezroq pishadi. Tuxumi tarkibida xolesterin yo'q. Qand kasalligiga chalingan va qon bosimi yuqori bemorlar ham uning tuxumidan bemalol iste'mol qilishi mumkin. Tuyaqush pati dekorativ bezak uchun ishlatiladi. Terisi sifatli, tashqi ta'sirga ancha chidamli. Undan poyabzal, sumka va boshqa jihozlar tayyorlanadi. Moyi og'riq qoldirish xususiyatiga egaligi tufayli tibbiyot va kosmetikada keng ishlatiladi.



9-may — Xotira va qadrlash kuni

G‘ALABA BAYONNNOMASINI OLIB KELGAN O‘ZBEK

Boshlanishi 1-betda

Ikki yillik tahsil davomida yosh uchuvchi “U-2” o‘quv samolyoti, “P-5” yo‘lovchi, “R-5” yengil bombardimonchi samolyotlarini boshqarishni o‘rgandi. Shundan so‘ng uni jonajon respublikasiga — O‘zbekiston aviatsiya otryadiga ishga tayinlashdi.

Qahramonimiz mahalliy yo‘nalishlar, shuningdek, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Qozog‘istonning ko‘plab shaharlariga parvozlarini amalga oshirdi. Tumanlar markazlarida yangi kichik aerodromlar va yo‘nalishlar tashkil etishda ham faol ishtirok etdi. 1940-yilga kelib, u turli tipdagi yakka va ko‘p motorli samolyotlarda parvoz qilishni o‘zlashtirib olgan edi.

Aeroklub kursantlari guruhida yo‘riqchi vazifasida faoliyat yuritgan vaqtda o‘zbek millatiga mansub birinchi parashyutchi qizlardan sanalgan Binisino Boltaboyevani sevib qolib, u bilan oila qurdi.

1941-yilning 22-iyunida Ikkinchi jahon urushi boshlangani haqidagi xabar butun dunyoni larzaga soldi. A.Taymetovning o‘zini frontga jo‘natish to‘g‘risidagi barcha murojaatlari jangovar harbiy qismlar uchun uchuvchilar tayyorlashning ahamiyati to‘g‘risidagi vaj bilan rad etildi. Chunki front uchun harbiy uchuvchilarni tekzor tayyorlash zarurati paydo bo‘lgandi. Mahorati uchuvchi shu paytgacha sohada o‘zining yuksak salohiyatini namoyish etgan bo‘lsa-da, endi Sirdaryo shaharchasidagi uchuvchilar tayyorlash eskadrilyasida komandir lavozimida o‘ziga topshirilgan mas‘uliyatli vazifani yuqori darajada bajarishi kerak edi.

U 1941-1942-yillarda 71 uchuvchini tayyorladi. 1943-yilda 30 dan ortiq “Li-2” samolyotini frontga yetkazib berish vazifasini sharafla bilan ado etdi.

Nihoyat 1944-yilga kelib, qo‘mondonlikdan frontga jo‘natishlarini so‘rab yozgan arizasiga ijobiy javob olgan Abdusamat Taymetov Toshkentdagi 84-aviazavodda ishlab chiqarilgan “Li-2” samolyotlari bilan qurollangan 10-gvardiyachi aviatsiya diviziyasiga yuborildi.

Bu samolyot yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, zavodda uning jangovar harakatlar uchun takomillashtirilgan varianti ishlab chiqarilardi. Unga himoya pulemyoti, bomba ilgichlar va desant tashlash jihozlari o‘rnatilgan edi. Bu samolyot haqida uchuvchilar “Uning uchishiga xalaqit bermasang bo‘ldi”, deydishardi. Shu bilan birga, bu samolyotda uchish bombardimonchi samolyotda parvoz qilishdan ko‘ra ancha qulay, sababi unda kabinadan tashqariga chiqish, chigal yozish mumkin edi.

Tungi parvozlari — juda jiddiy va mas‘uliyatli vazifa. Front chizig‘i ancha uzoq, razvedka guruhini dushman hududiga tashlash, partizanlar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha va o‘q-dori yetkazish, yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish, bolalar, ayollar va keksalarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, qorong‘ida notanish joylarga qo‘nish, yo‘nalishni faqat olov yog‘dusida aniqlash kabi qator qiyin va xavfli vazifalarni bajarish qahramonimiz boshliq ekipajga yuklatilgan edi.

Abdusamat Taymetov xotiralaridan

“Urush garchi uzoq G‘arbda kechayotgan bo‘lsa-da, u bizning ham yelkamizga o‘z og‘irligini tashlagan edi. Biz hozircha jangovar harakatlarda bevosita ishtirok etmasdik va bu holat bizni azoblardi. Mening joyim frontda deb hisoblardim. Ariza yozdim. Aytishdiki, “Front uchun uchuvchilarni tayyorlash muhim”. Harakatdagi armiya safiga yuborishlarini so‘rab yozgan ikkinchi arizam qondirildi. 71 uchuvchini tayyorlab berganimdan so‘nggina menga frontga borishga ruxsat berildi. 71 uchuvchi bir



“

O‘zbek o‘g‘lonining ismi tarixga oltin harflar bilan yozib qo‘yildi. Abdusamat Taymetov o‘zining to‘rt jangovar safdoshi bilan birgalikda 80 yil avval Berlindan Moskvaga Germaniyaning urushda so‘zsiz taslim bo‘lgani — kapitulyatsiyasi to‘g‘risidagi akt — bayonnomani olib kelishdek sharaflı vazifani qoyilmaqom etib bajardi.

aviatsiya polkiga teng shaxsiy tarkib edi. “Li-2” samolyotida uchish bo‘yicha qayta tayyorgarlik kursini tamomladim. Menga Toshkent aviazavodida ishlab chiqarilgan “Li-2” samolyotlarini frontga uchirib olib borish vazifasi yuklatildi. 1943-yil davomida 30 dan ortiq samolyotni uchirib olib bordim. Lekin bu hali urushda qatnashdim degani emasdi.

Mana, 1944-yilning fevrali. Vnukovo aeroporti. Men 10-gvardiyachi tungi aviatsiya diviziyasining ikkinchi Xerson polki kema komandiriman. Kapitan Nikita Bogdanov bilan “Si-47” samolyotida bir necha mashq parvozi va birinchi jangovar parvozni amalga oshirdik. Amerikaning qo‘shimcha yoqilg‘i bakiga ega, ko‘p motorli “SI-47” samolyoti to‘xtovsiz 20 soat parvoz qila olar edi. Undan front chizig‘idan uzoqda joylashgan partizan bo‘linmalari ta‘minoti uchun foydalanilardi. Bort 3-4 tonna miqdordagi yukni tashish yoki 25 nafar yaradorni jang maydonidan olib chiqish uchun jihozlangan bo‘lib, ekipaj 5 kishi — kema komandiri, ikkinchi uchuvchi Pyotr Gordiyenko, shtruman Nikolay Smirnov, bortmexanik Vasily Demin va bortradist Mixail Kalinkindan iborat edi. Ekipaj samolyotga tezda ko‘nikdi, birgalikda yuqori darajadagi harakatlar uyg‘unligiga erishdi.

Afsonaviy partizanlar komandiri Kovpak otryadlari joylashgan manzilga amalga oshirilgan parvoz xotiramda qolgan. Kovpak radiogramma orqali uning bo‘limmasini nemislar qurshovga olganini, yorib o‘tish uchun yaradorlar ko‘pligi xalaqit berayotganini xabar qildi. Biz tunda borta uch yarim tonna o‘q-dori va dori-darmon yuklab osmonga ko‘tarildik. Front chizig‘ini muvaffaqiyatli ortda qoldirdik, zenitchilardan va yoritqichlardan o‘tdik. Bulutlarning pastligi yerdagi nishonlarni yopib turardi. Qo‘ndik.

Men birinchi bor “ko‘rinmas odam” — partizanlar komandirini ko‘rdim. O‘zimni tanishtirdim. Kovpak mening qo‘limni siqib qo‘ydi va biz borta qancha yarador olishimiz mumkinligini so‘radi. Men “Yigirma beshta”, deb javob berdim. Kovpak bosh silkib ma‘qullab qo‘ydi, e‘tiroz bildirmadi. Samolyotdagi yuklarni tushirib, yaradorlarni chiqarishni boshlashdi.

— Sendagi Amerika yoritqichi zo‘r ekan, menga sovg‘a qilmaysanmi? Men senga nemis furajkasini beraman, urush tugasa, bolalaringga ko‘rsatasan, — dedi Kovpak.

Men unga yoritqichimni hadya qildim. U xursand bo‘ldi va astoydil rahmat aytdi. Shu payt ikkinchi uchuvchi Pyotr Gordiyenko yaradorlarni borta chiqarish yakunlangani haqida xabar berdi.

Men Kovpak va uning qurolodoshlari bilan xayrlashdim. Bir daqiqadan so‘ng samolyotimiz yerdan og‘ir ko‘tarildi. Biz forsajda daraxt shoxlariga tegishimizga oz qoldi. Rovno shahri yaqiniga qo‘ndik. Yaradorlarni tushira

boshladik. Menga ular nimagadir ko‘proq ko‘rindi. Sanasam, qirq uch nafar ekan. Kovpak yigirma besh o‘rniga qirq uch yaradorni chiqarib yuborgan, u meni yoritqich so‘rab kalg‘an ekan. Kimga joy yetmagan bo‘lsa, parashyut o‘rindiqdari tagiga tiqishibdi.

Bu jangovar vazifani bajarganimiz uchun ekipajimiz endigina ta‘sis etilgan “Ulug‘ Vatan urushi partizaniga” medali bilan taqdirlandi.

1945-yil 1-yanvarda meni tungi parvozlarning mahorati uchuvchisi sifatida maxsus topshiriqlarni bajaradigan 19-aviatsiya polkiga o‘tkazishdi. Angliyaga, Fransiya uchudim. Davlat va hukumat rahbarlari, yuqori unvonli va martabali harbiy boshliqlar hamda diplomatlarni olib yurdim. Angliyaga uchish uchun biz Tehron, Qohira, Tripoli, Tunis va Marsel orqali o‘tadigan janubiy yo‘nalishdan foydalanardik. O‘zlarining xavfsizlik darajalari bo‘yicha ular tinchlik davridagi parvozlarga yaqin edi.



1945-yil 6-may kuni biz Tehronidan Moskvaga uchib keldik. Ekipajga dam olish va hech qayerga chiqmaslik bo‘yicha buyruq berildi. Qandaydir ahamiyatli voqea kutilayotgan edi, lekin hayajon sezilmasdi. Ekipaj 7-may kuni ham dam oldi.

8-may kuni bizni erta tongda uyg‘otishdi. O‘zimizni tartibga keltirib, samolyotga keldik. Samolyotimiz yoqilg‘i bilan to‘ldirilgan va parvozga shay holatga keltirilgan edi. Polk

komandiri podpolkovnik Aleksey Ivanovich Semenkodan samolyotdan chiqmay buyruqni kutish to‘g‘risida ko‘rsatma oldim. O‘ylab qoldim, topshiriq to‘g‘risida ma‘lumot berilmagan, lekin buyruq bu — buyruq-da, jimgina sabr qilib kutishdan boshqa choramiz yo‘q edi.

Tez orada yo‘nalish xaritasini olib kelishdi, trassa Kiyev orqali Varshavaga, Germaniya — Polsha chegarasi yaqiniga ko‘rsatilgan edi. Butunlay mavhumlikdan ko‘ra bu yaxshiroq. Havo namligi yuqori, bulutlar past, maydalab yomg‘ir yog‘ardi. Kutaymiz. Bir necha yengil mashina keldi. Harbiy va fuqaro kiyimidagi shaxslar borta chiqdi. Bilishimcha, yo‘lovchilarni chiqarishga ko‘rsatma berilgan.

Men kabinadan chiqmay, o‘zimming chap o‘rindig‘imda o‘tiribman. O‘ng tomondagi ikkinchi uchuvchining joyi bo‘sh. Demak, vazifani bajarishda ikkinchi uchuvchi qatnashmaydi. Yo‘lovchilar kabinasi eshigi qanday yopilganini eshitdim. Uchuvchilar kabinasiga polk komandiri kirdi va menga

balandlikdan so‘ng bulutli hududdan chiqdik. Osmon ko‘m-ko‘k, yomg‘irda yuvilgandek, quyosh kuchli va yorqin nur sochardi.

Ushbu ochiq havo bizga butun parvoz davomida hamroh bo‘ldi. Ikki soatdan so‘ng Kiyev osmonidan o‘tdik va Varshava tomon uchdik. Varshava osmonida topshiriq varaqasini ochdim. Unda ko‘rsatma va vazifaning birinchi qismini bajarganimizdan so‘ng ochishimiz buyurilgan yana bir hujjat bor edi. Germaniya — Polsha chegarasida raketa signali orqali bizga kuzatib boruvchi olitita qiruvchi samolyot qo‘shilishi kerak edi. Chegara hududiga yaqinlashganimizda qizil yulduzli bombardimonchi va qiruvchi samolyotlar ko‘rindi. Biz topshiriqqa ko‘ra samolyot oynasidan qizil signalli raketani uchirdik. Ikkinchi aylanadan so‘ng navbatdagi raketa uchirildi. Agar signaldan so‘ng kuzatuvchi samolyotlar havoqa ko‘tarilmasa, ekipaj qo‘nishi kerak edi. Ular ko‘rsatilgan vaqtda, ko‘rsatilgan joyda paydo bo‘ldi, bir oz vaqt o‘tib, yana uchta samolyot qo‘shildi. Jami to‘qqizta kuzatuvchi. Ushbu holatda ikkinchi hujjatni ochishimiz ko‘rsatilgan va vazifani bajarishda davom etishimiz aytilgan edi. Men muhrlangan hujjatni ochdim: “Yo‘nalish Berlin tomon va Tempelhof markaziy aerodromiga qo‘nish”. Bir daqiqadan so‘ng shtruman yo‘nalish to‘g‘risida ma‘lumot berdi.

Qiruvchilar bizni goh quvib o‘tar, muayyan vaqtdan so‘ng qaytar edi. Nihoyat pastda hech kimga xavf olmaydigan, tutun ichida qolgan va butunlay yakson bo‘lgan Berlin yastanib yotardi. Qo‘nyapmiz.

Samolyotni general-polkovnik Sokolovskiy kutib oldi. Yo‘lakda faxriy qorovul saf torgan. Vishinskii birinchi bo‘lib samolyot zinasidan tushdi, uning ortidan generallar va fuqaro kiyimidagi yo‘lovchilar ergashdi.

Tez orada Amerikaning “Uchuvchi qal’a” nomi bilan mashhur samolyoti qo‘ndi. Keyin AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya vakillari kelgan samolyot qo‘ndi. So‘ngra taslim qilingan gitlerchilar qo‘shini qo‘mondonligi vakillari kelib qo‘ndi. Feldmarshal Keytel ushbu samolyotda kelgan edi.

Hammani kutib olishdi. Ekipaj samolyot yaqinida bo‘lishi va angardan uzoqlashmasligi to‘g‘risida buyruq oldi. Biz ovqatlandik va dam oldik.

9-may. Erta tongda ellik kishiga yaqin odam mashinalarda keldi. Hamma xush kayfiyatda edi. Generallar Aleksey Semenkovga qizil bayroq va paket berdi. Bayroq va paket g‘alaba belgisi ekanini sezdim.

Semenkov paketni menga uzatdi va asta shivirladi: “Paket ichida Germaniyaning urushda so‘zsiz taslim bo‘lgani — kapitulyatsiyasi to‘g‘risida feldmarshal Keytel imzolagan akt — bayonnom bor. Ehtiyot bo‘l, bu bizning g‘alabamiz”. Mana o‘sha kutilgan xotima. Mana o‘sha Vatanimizning qahramonligi muvaffaqiyat bilan tugagan kun. Bu quvonchli daqiqalarni hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmas edi. Bunday daqiqalar uchun butun hayotining bag‘ishlasang arziydi.

Havoqa ko‘tarildik, yo‘nalish Moskvaga qaratilgan edi. Birinchi yangi kunni, birinchi tinch va osuda kunni kutib olish uchun parvoz qilyapmiz. Osmon to‘q qizil, keyinchalik sariq rangga kirdi. Quyosh nurlari kabinani yoritdi.

Ertalab soat 11 da biz Moskvaga qo‘ndik. Aleksey Semenkov bizni kutib olgan generalga qizil bayroq va paketni mendan olib unga topshirdi. Harbiy boshliqlar o‘tirgan mashina Kreml tomon jo‘nab ketdi. Ekipaj kutub oluvchilar davrasida qoldi. “Barakalla, qahramon uchuvchilar!” Barcha mashhur ekipaj a‘zolarini olqishlar, osmonga otish uchun intildilar.

Qizil maydonda mashhur diktator Levitan Germaniya gitlerchilarining urushda so‘zsiz taslim bo‘lgani to‘g‘risidagi bayonnomani o‘qib eshitirdi.

Baxt — g‘alaba baxti qanday bo‘lishini men o‘shanda ko‘rdim, ich-ichimdan tuydım”.

O‘zbek o‘g‘lonining ismi tarixga oltin harflar bilan yozib qo‘yildi. Abdusamat Taymetov o‘zining to‘rt jangovar safdoshi bilan birgalikda 80 yil avval Berlindan Moskvaga Germaniyaning urushda so‘zsiz taslim bo‘lgani — kapitulyatsiyasi to‘g‘risidagi akt — bayonnomani olib kelishdek sharaflı vazifani qoyilmaqom etib bajardi. Afsonaviy ushbu beshlikning ism-sharifi maxfiylashtirildi, ulardan davlat sirini oshkor qilmaslik to‘g‘risida hatto tilxat olindi. Faqat buyuk G‘alabadan 30 yil o‘tib, o‘sha taqib ulardan olib tashlandi.

Tez orada tarixiy parvozni amalga oshirgan ekipajni taqdirlash to‘g‘risida farmon e‘lon qilindi. Abdusamat Taymetov va uning ekipaji jangovar “Qizil bayroq” ordeni bilan taqdirlandi. Qahramonimizning bu ordeni frontdagi xizmatlari uchun eng oliy mukofot bo‘ldi.

Urush tugadi. Abdusamat Taymetov qadrdon yurtiga qaytib keldi va fuqaro havo flotiga qarashli 161-maxsus aviatsiya otryadi boshlig‘i lavozimiga tayinlandi. Bir necha yildan keyin mashhur uchuvchi Toshkent aeroporti boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritish bilan birga respublikamiz Oliy soveti deputatligiga saylandi.

Urush boshlangandan 40 yil o‘tib, uning yuragi boshqacha urishni boshladi. Shu kuni keksa uchuvchi frontda halok bo‘lgan do‘stlarini, jangovar o‘roqlarini, mashaqqatli jang maydonlarini esladi.

Bir oy o‘tmay, 1981-yil 8-iyul kuni birinchi o‘zbek uchuvchisi, g‘alaba haqidagi quvonchli xabarni olib kelgan Abdusamat Taymetov so‘nggi parvoz“ini amalga oshirdi. Bu safar qaytmas bo‘lib ketdi. Lekin uning qahramonligi va sharaflı nomi kelgusi avlodlar tilida mudom faxr va g‘urur bilan yanbrg turibdi.

Bugungi kunda poytaxtimizning G‘alaba bog‘idagi “Shon-sharaf” davlat muzeyida bir samolyot saqlanadi. U aynan o‘sha mashhur o‘zbek uchuvchisi Abdusamat Taymetov Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alaba to‘g‘risidagi rasmiy hujjatni — aktini olib kelgan “Li-2” rusumli samolyot.

Yosh avlod ushbu muzeyda Abdusamat Taymetov xotirasiga bag‘ishlangan eksponat timsolida bobolarimiz jasoratini, ular amalga oshirgan buyuk ishlarni xotirlaydi. Ulardan o‘rnak va namuna olishga intiladi.

Baxtiyor YOQUBOV, Nurillo AZIMOV



Muxtor Rasulov yoshligidan ilimga qiziqdi. Bu qiziqish uni maktabdan so‘ng Toshkent pedagogika bilim yurtiga boshladi. 1940-yilda mazkur o‘quv yurtini bitirgan mutaxassis Toshkent tumani Changihisorak qishlog‘idagi to‘liqsiz o‘rta maktabga yuborildi. O‘sha davrda maktablarda o‘qituvchi yetishmas, muallimlar bir darsdan chiqib, navbatdagsiga kirishga majbur bo‘lar, nafas rostlab olish uchun vaqt yetishmasdi. Ayniqsa, o‘sha pallada amalda bo‘lgan eski lotin yozuvi o‘rniga birdan, hech qanday tayyorgarliksiz kirill yozuvining joriy etilishi bu jarayonni yanada murakkablashtirib yubordi. Yosh muallim

maktabda fizika va matematikadan dars berish bilan birga ilmiy mudirlik ham qilardi. Shuning uchun o‘qituvchilar bilan ham alohida mashg‘ulot o‘tardi.

UCHUVCHI VA OLIMNING UMR MAZMUNI

1940-yil oktabrda Muxtor harbiy xizmatga chaqirilib, sobiq ittifoqdagi harbiy uchuvchilar maktabiga safarbar qilindi. U samolyotda uchish, nishonga o‘q uzish, rakurs bo‘yicha havoda mashq qilish, radioaloqa o‘rnatish, parashyutdan sakrash kabi zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ldi.

To‘satdan boshlangan mudhish urush mamlakatdagi tinch-osuda hayotni izdan chiqarib yubordi. Muxtor Rasulov ta‘lim olayotgan harbiy uchuvchilar maktabidagi ikki yillik o‘qish ham bir yilda poyoniga yetdi. Yigit yangi tashkil etilayotgan aviatsiya polkiga jo‘natildi. Mazkur polk hali shakllanmagan edi. U yerda tajribali uchuvchilar yetishmas, yosh uchuvchilarning ko‘pi esa Muxtor Rasulov singari yetarli darajada amaliyotga ega emasdi.

1941-yil iyulda Muxtor birinchi bor jangga kirdi. Shu tariqa o‘lim bilan necha bor ro‘baro‘ kelib, ayrim paytlarda ajal changaliga tushib qolishiga bir bahya qoldi.

Sobiq uchuvchining shaxsiy arxivida saqlanayotgan hujjatlar orasida mudofaa arxividan olingan materiallar ham bor. Ularda Muxtor Rasulov butun urush mobaynida 100 martadan ortiq jangovar parvoz qilgani, ulardan 60 dan ziyodi razvedka maqsadida bo‘lgani, uchta dushman samolyotini urib tushirgani bayon etilgan. Rasulov eskadrilyasi birinchi bo‘lib Berlin ustida razvedka ishlariini amalga oshirgani o‘sha davrdagi harbiy suratlashlar tomonidan ishlangan plakatlada aks ettirilib, frontning ko‘plab



joylariga ilib qo‘yilgan edi. Insoniyat tarixida o‘chmas dog‘ bo‘lib qolgan Ikkinchi jahon urushida ko‘rgan-kechirganlari muallifning “Alangali yillarim” nomli kitobida batafsil qayd etilgan.

Qahramonimiz frontdan qaytgach, bir muddat mas‘ul lavozimlarda ishladi. Ammo murabbiylikka mehri 1951-yildan boshlab yana ta‘lim tizimiga qaytishga undadi. Pedagoglik faoliyatini assistentlikdan boshlagan Muxtor Rasulov Samarqand kooperativ instituti rektorligigacha bo‘lgan shonli yo‘lni bosib o‘tdi. Ko‘p yillar mazkur oliygohga rahbarlik qildi.

Instituting moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamon talablariga javob beruvchi yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash, o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy ishlarni jonlantirishga alohida e‘tibor qaratdi. Qisqa muddatda Markaziy Osiyo respublikalarida institut filiallari ochildi. Texnologiya assistentligi bo‘yicha Boltiqbo‘yi mamlakatlari, Novosibirsk va boshqa shaharlarda o‘quv guruhlari tashkil etildi. Xullas, besh yilda institut talabalari 1800 dan 7500 nafarga yetdi.

Albatta, talabalar soni oshishi zudlik bilan yechim topish lozim bo‘lgan yangidan yangi vazifalarni vujudga keltirar edi. Masalan, bir tomondan o‘qituvchilarni ko‘paytirishni taqozo etsa, boshqa tomondan talabalar va pedagoglarni turar joy bilan ta‘minlash uchun katta qurilish ishlarga turki berdi. Bu kabi muammo va qiyinchiliklar, mas‘uliyatdan cho‘chimagan Muxtor Rasulov birinchi qatorida muhtoj talabalarni yotoqxonaga bilan to‘liq ta‘minlashga muvaffaq bo‘ldi.

O‘qituvchi, murabbiylikning mas‘uliyat va sharaflı jihatlarini to‘liq his etgan, o‘zaro uyg‘un

olib borgan insongina mazkur kasbning haqiqiy egasiga aylanadi. Ushbu hayotiy qoidani yaxshi anglab yetgan Muxtor aka ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida 1958-yilda nomzodlik, 1973-yilda esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Ilmiy tadqiqot faoliyati davrida bir nechta monografiya va darsliklar bitdi.

Mustaqillik olimga yangi kuch-g‘ayrat, ilhom baxsh etdi, ilmiy-pedagogik faoliyatida yangi qirralar ochilishiga sabab bo‘ldi. Zero, O‘zbekistonning o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlashi, milliy iqtisodiyotni butunlay o‘zgartirgan holda, zamonaviy iqtisodiyotni barpo etish yo‘lidagi katta islohotlar, mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarni joriy etish jarayoni ilmiy pedagog kadrlar oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ydi. Ushbu vazifalarni muhim anglagan va tasavvur etgan holda Muxtor Rasulov bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining o‘ziga xos murakkabliklari, xususiyatlari, mamlakatimiz iqtisodiyotini yangidan barpo etish borasidagi izchil islohotlar mazmun-mohiyatini keng omimga yetkazishdek mas‘uliyatli jarayonda faol ishtirok etdi. U kadrlar tayyorlashda tarbiyaning ahamiyati, inson ma‘naviyatining o‘rniga alohida yondashdi. Ta‘lim-tarbiyaning uzviyiligi to‘g‘risidagi qoida uning hayotiy prinsiplaridan biri edi. Shuningdek, o‘quvchi va talabalar, turli idora va tashkilotlar mehnat jamoalari bilan uchrashib, ma‘naviyatga oid mavzularida subhatalashish ham ustoz uchun qizg‘in jarayon bo‘lgan.

Turg‘un ZIYAYEV, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy doktori

